



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMY AHAMIYATI

Oltiyeva Surayyo

Denov tumani 72-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqola, boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol usullardan foydalanishning ta'limiy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada interfaol usullar, o'qituvchilar va talabalar uchun ta'lim jarayonini qulaylashtirish, tashqi dunyoga bog'liq ma'lumotlarni integratsiya qilish, va o'rganish motivatsiyasini oshirish yo'llari ko'rsatiladi.


Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol usullar, masalan, darslarni interfaol veb-saytlar, ilova dasturlar, virtual darsliklar, va boshqa texnologik vositalar orqali tashkil etishning o'qish jarayonini qanday o'zgartirishi mumkinligi bayon qilinadi. O'qituvchilar uchun bu, talabalarni o'rganishni yanada qizg'inroq va samarali qilishda muhimdir.

Maqolada talabalarga o'zlarini o'rganishlari va o'rganishlarini baholashlari uchun onlayn vositalardan foydalanishning o'z ahamiyati ham o'z vaqtida aytib o'tiladi. Bu, talabalarga ularning o'z o'rganishlari ustida boshqaruv qilish imkoniyatini beradi va ularning o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

Interfaol usullar orqali o'rganishning bir qismi ta'limiy dasturlar va kontentlar orqali amalga oshiriladi. Maqolada, bu tashqi dasturlarning va o'zlashtirish imkoniyatlarning o'rganish jarayonini o'z ichiga olgan muhimliklarini ko'rsatish uchun misollar beriladi.

So'z boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol usullardan foydalanishning o'qitish jarayonini yanada samarali qilish uchun zarur bo'lgan muhim faktorlar va eng yaxshi praktikalar ham ko'rsatiladi. Maqolada talabalarni interfaol usullar orqali o'rganishga yo'l qo'yimoq, ularni motivatsiyalash va ta'limiy jarayonlarini o'zlashtirish bo'yicha boshqa maslahatlar va takliflar ham taqdim etiladi.

Annotatsiya maqola mavzusini jamiyatning hozirgi davriga mos ravishda o'quvchilarni o'rganishda yangi yo'llar va texnologiyalardan qanday foydalanishni o'rgatishda qanday samarali ta'limiy usullaridan foydalanish mumkinligini o'rganishni maqsad qiladi.





Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish, izohli o'qish, intonatsiya, metod, ta'lim, ifodali o'qish, badiiy o'qish, interfaol usullar, ta'limiy ahamiyat, ta'limiy jarayon, o'rganish motivatsiyasi, virtual darsliklar, veb-saytlar, ilova dasturlar, texnologik vositalar, o'qituvchilar, talabalar, onlayn vositalar, tashqi dasturlar, o'rganish imkoniyatlari, o'zlashtirish, motivatsiya, ta'limiy, samarali ta'lim, yangi yo'llar va texnologiyalar

Abstract: This article examines the educational value of using interactive methods in elementary reading classes. The article presents interactive methods, ways to facilitate the educational process for teachers and students, integrate information related to the external world, and increase learning motivation.

The article describes how interactive methods, such as organizing lessons through interactive websites, applications, virtual textbooks, and other technological tools, can change the learning process in elementary reading classes. For teachers, this is important in making student learning more intense and effective.


The article also highlights the importance of using online tools for students to self-study and assess their learning. This gives students the opportunity to take control of their own learning and increases their motivation to learn.

Part of learning through interactive methods is through educational programs and content. In the article, examples are given to illustrate the importance of these external programs and opportunities for inclusion in the learning process.

It also highlights the important factors and best practices for using interactive methods in elementary reading classes to make the teaching process more effective. The article also provides other tips and suggestions for engaging students in interactive learning, motivating them, and mastering the learning process.

The abstract aims to study the topic of the article and what effective educational methods can be used to teach students how to use new ways and technologies in learning in accordance with the current era of society.

Key words: primary class, reading, interpretive reading, intonation, method, education, expressive reading, artistic reading, interactive methods, educational value, educational process, learning motivation, virtual textbooks, websites, apps, technology tools, teachers, students, online tools, external programs, learning opportunities, mastery, motivation, educational, effective learning, new ways and technologies.





Аннотация: В данной статье рассматривается образовательная ценность использования интерактивных методов на начальных занятиях по чтению. В статье представлены интерактивные методы, способы облегчения образовательного процесса для учителей и учащихся, интеграции информации, связанной с внешним миром, повышения мотивации обучения.

В статье описано, как интерактивные методы, такие как организация уроков с помощью интерактивных веб-сайтов, приложений, виртуальных учебников и других технологических инструментов, могут изменить процесс обучения на уроках начального чтения. Для учителей это важно, поскольку обучение учащихся становится более интенсивным и эффективным.


В статье также подчеркивается важность использования онлайн-инструментов для самостоятельного обучения студентов и оценки их обучения. Это дает учащимся возможность взять под контроль собственное обучение и повышает их мотивацию к обучению.

Часть обучения с помощью интерактивных методов осуществляется через образовательные программы и контент. В статье приведены примеры, иллюстрирующие важность этих внешних программ и возможности включения в процесс обучения.

В нем также освещаются важные факторы и лучшие практики использования интерактивных методов на начальных уроках чтения, чтобы сделать процесс обучения более эффективным. В статье также приведены другие советы и предложения по вовлечению учащихся в интерактивное обучение, их мотивации и освоению процесса обучения.

Целью аннотации является изучение темы статьи и того, какие эффективные образовательные методы можно использовать, чтобы научить студентов использовать новые способы и технологии в обучении в соответствии с современной эпохой общества.

Ключевые слова: начальный класс, чтение, интерпретативное чтение, интонация, метод, обучение, выразительное чтение, художественное чтение, интерактивные методы, образовательная ценность, учебный процесс, мотивация обучения, виртуальные учебники, веб-сайты, приложения, технологические инструменты, учителя, ученики, онлайн. инструменты, внешние программы,



возможности обучения, мастерство, мотивация, образовательное, эффективное обучение, новые способы и технологии

Kirish:

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim.

Asosiy qism

Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish.

Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol






ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat -dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media - ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakillantirish. Ta'lim - tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turli yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlargarioya qilish yaxshi natijalar beradi.


O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga boigan intilishlariga turki beriladi.

Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darshklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yiirituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.





4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafak-kurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasawurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi. Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin boigan metodlardan biri ijodiy o'qishdir.

Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:


a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi;

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega boigan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy hususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat tiyiishtirish yoki o'qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi.

Xulosa qilish uchun, interfaol usullar orqali o'rganishning boshlang'ich sinf o'qish darslarida ta'limiy jarayonni samarali va ma'naviy qilishda o'qituvchilar va talabalar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratishda muhim rolini ta'kidlaydi. Bu usullar, o'rganish motivatsiyasini oshirish, ta'limiy jarayonni yanada qizg'inroq qilish, va o'rganishdan qiyinchiliklarni kamaytirishda asosiy qo'llanmalar sifatida qo'llaniladi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q. va boshqalar “O’qish ktobim” 2- sinf, T. 2006.
2. Abdullayeva Q., va boshqalar “Savod o’rgatish darslari” T, “O’qituvchi” 1996.
3. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O’qituvchi” 1999.
5. Bo’ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o’zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
6. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O’qituvchi» nashriyoti, 2008.
- Siemens, G. (2006). Connectivism: Learning as network-creation. *ASTD Learning News*, 10(1).
7. Prensky, M. (2001). Digital natives, digital immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
8. Bates, T., & Sangrà, A. (2011). *Managing Technology in Higher Education: Strategies for Transforming Teaching and Learning*. Jossey-Bass.
9. Laurillard, D. (2008). Digital technologies and their role in achieving our ambitions for education. In *JISC CETIS Conference*.
10. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines*. John Wiley & Sons.

